

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ILGARI SUDLANGAN VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING O`ZIGA XOSLIGI

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 313-guruh kursanti

Xasanov Mamayusuf Ergash o`g`li

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi, profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi, profilaktika chora-tadbirlarining bugungi kundagi holati va amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari. Bundan tashqari profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish doirasidagi normalarning amaliyot tahlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek, ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha bir qator takliflar. Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyati bo`yicha ilg`or xorijiy tajriba taxlili hamda milliy qonunchiligimizdan farqli va o`xshash tomonlari, shuningdek, yuqorida keltirib o`tilgan jihatlaridan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo`nalishlari yoritib o`tilgan.*

Annotation: *In this scientific article, the relevance of the research topic, the concept of preventive inspector's work with previously convicted minors, the current state of preventive measures and the specific features of their implementation. In addition, the organizational and legal basis of preventive inspector's work with previously convicted minors and practical analysis of norms within the framework of their improvement and procedural documents maintained within the framework of this activity, problems and shortcomings in this activity, as well as a number of suggestions for eliminating certain types of existing problems and shortcomings. The analysis of the advanced foreign experience of the prevention inspector in working with previously convicted minors, as well as the differences and similarities with our national legislation, as well as the directions for improving this activity using the above-mentioned aspects, are highlighted.*

Har qanday davlatning taraqqiyoti o`sib kelayotgan avlodning ta`lim va tarbiya darjasiga bog`liqdir. Bunga erishish uchun, avvalo, jamiyat a`zolari, xususan, voyaga yetmagan va yoshlarning siyosiy, ijtimoiy, ma`naviy va huquqiy ongi, madaniyati yuqori bo`lishi talab etiladi. Bu borada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o`ziga xos xususiyatlari, sabab va unga imkon bergan shartsharoitlarini aniqlash, mazkur jinoyatchilikning oldini olish dolzarb vazifa hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o`tmish va hozirda ham dolzarb muammolardan biri bo`lib kelgan. Kelajakda ham shunday bo`lib qoladi, chunki voyaga yetmaganlar millat, xalq, davlatning kelajagini belgilab beruvchi kuchdir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u barvaqt profilaktikaning asosiy ob`yektlardan biri hisoblanadi. Binobarin, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabab va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o`rganish orqali voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish va uni barvaqt profilaktikasini tashkil etishga erishiladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti

SHavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr' kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida «SHu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz» degan so'zlari ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganish, uni tahlil etish va barvaqt profilaktikasini amalga oshirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 40 foizga yaqinini voyaga yetmaganlar tashkil etishi voyaga yetmaganlar jamiyat va davlat rivojiga ta'sir etuvchi va hal qiluvchi asosiy omil ekanligidan dalolat beradi. Azaldan mamlakatimizda farzand dunyoga kelganidan bosh lab, to kamolga yetguniga qadar uning ta'minoti, ta'lim-tarbiyasi va bilim olishi, kasb-hunar egallashiga, umuman, yetuk inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor qaratib kelingan. bolalar ta'limi va tarbiyasi borasida jiddiy nuqsonlar borligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati o'g'irlik, talonchilik va bezorilikni tashkil qilishi kuzatilmoqda.

Mazkur jinoyatlarni kelib chiqishiga sababchi bo'lgan asosiy omillardan biri, voyaga yetmagan shaxslarni tarbiyasiga e'tibor otaonalari va mahalla e'tiboridan chetda qolganligi sababli, jinoyatga bilib-bilmay qo'l urganliklaridir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishda, profilaktika inspektorlari, yashash joylari bo'yicha voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalarini rollari muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlarning ishlarini sudda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu voyaga yetmaganlarning ishlarini yopiq sud majlisida ko'rish, voyaga yetmagan sudlanuvchini sud majlisi zalidan chiqarib turish, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga ishning ko'rilishi to'g'risida xabar berish, voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud tomonidan hal etiladigan masalalar, voyaga yetmagan sudlanuvchini javobgarlikdan yoki jazodan majburlov choralarini qo'llagan holda ozod etishdir.

Sud muhokamasi odil sudlov organlari faoliyatining asosiy shaklidir. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ish yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari mumkin qadar odil sudlovning umumiy vazifalariga, jinoyat protsessi maqsadlariga muvofiq kelishi va shu turdagi jinoyat ishlarini ko'rib chiqish xususiyatini hisobga olishi lozim. Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini sudda muhokama qilish to'rtta o'zaro bog'liq muammoni kompleks o'rganishni nazarda tutadi:

- Jinoyat sabablari;
- Jinoyat hujjatlarining shakllanish jarayoni;

- Individual hulq-atvor mexanizmi;
- Majburlov va ogohlantiruv choralarining ta'sir samarasi.

Ma'lumki, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ish yuritishda umumiy talab jinoyat sabablari va uni sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash majburiyati hisoblanadi.

Shu maqsadda sud majlisida ishtirok etish uchun o'smirning turmush va tarbiya sharoitlarini yaxshi bilgan shaxslarni jalb etish lozim. Ular orasida, albatta, o'quv-tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, vasiylik va homiylik organlari vakillari bo'lishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda profilaktika inspektorlarining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatining takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Ilgari sudlangan voyaga yetmagan yoshlarni sodir etgan jinoyatini jinoyatlarning tasniflanishiga ko'ra toifalarga bo'lib, ular bilan individual ishlash tizimini yo'lga qo'yish;

- Ilgari sudlangan voyaga yetmaganlarning tajribasizligi, ma'lumoti darajasi va huquqiy ongining pastligini inobatga olib, ular uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish (masalan:kompyuter savodxonligi, fan to'garaklari);

- Yoshlarning bo'sh vaqtlarida Yoshlar Ittifoqi bilan hamkorlikda "Yoshlar bizning kelajagimiz" nomli loyihani amalga oshirish;

- Ilgari sudlangan voyaga yetmaganlarning oilaviy ahvolini o'rganish hamda ularning tarbiyasini muntazam nazorat qiluvchi murabbiylar tayinlash;

- Ilgari sudlangan voyaga yetmaganlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha, ularning normativ-xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, qidirish, ularni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni yaratish lozim.

- Ilgari sudlangan voyaga yetmaganlarni tadbirkorlikka qiziqtirish, moliyaviy savodxonligini oshirish, xorijiy tillarni o'rgatish, ijodkorlik qobiliyatlarini kashf etish, sport, musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab quvvatlash va yo'naltirish lozim.

- Diniy oqimlarga adashib kirib qolganlarni esa yuqoridagi harakatlar bilan birga va O'zbekiston Musulmonlar Idorasi bilan hamkorlikda to'g'ri diniy ta'lim berish va ularning turli qobiliyatlarini, malakasini qaytadan yaratish, yaxshilash lozim.

- Voyaga yetmaganlar va yoshlarda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga murossasizlik ruhini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish.

- Ilgari sudlangan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar sodir etishini oldini olish, aniqlashdan tashqari ularning tipologik xususiyatlarini o'rganish lozim.

- Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari psixologlari zimmasiga g'ayriijtimoiy xulq-atvorli va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan psixologik ish amaliyotini tizimli ravishda amalga oshirish, shu jumladan ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretni tuzgan holda o'rganish, shuningdek ularni qat'iy tuzalish yo'liga o'tganlar va jinoyat sodir etishga moyillar toifasiga ajratgan holda yangi jinoyat sodir etish xavfini psixologik baholash lozim.

Istoqlol yillarida O'zbekistonda voyaga yetmaganlar va yoshlarning barkamol o'sib - ulg'ayishi hamda ta'lim-tarbiya olish bo'yicha islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga

oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshirish, xususan barkamol avlodni huquqiy himoya qilish va oilani mustahkamlash, ularning huquq va erkinliklari qonuniy manfaatlarini amlag oshirishni ta'minlash maqsadida mustaqillik yillarida 48 dan ortiq qonun, 35 dan ko'p Prezident Farmon va qarorlari, 127 dan ziyod Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindi.

1. Profilaktika inspektorining jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatiga oid nazariy bilimlarni kuchaytirish taklif va tavsiyalar:

Birinchidan, Faoliyatning o'ziga xususiyatlarini inobatga olgan xolda Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan targ'ibotni tashkil eta olishdir. Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyoqarashi kaliti hisoblanadi. Bosh qonundan tortib qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, fuqarolik va turli huquqiy ko'rsatmalarni bilish, huquqiy targ'ibotlarni qanday ko'rinishi bo'lmasin uni tahlil qila olish, o'z huquqini himoya qila olishida namoyon bo'ladi. Bu esa qonunni buzish nechog'lik xatoligini, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lish kerakligini tushunishga olib keladi.

Ikkinchidan, hududdagi yoki mahalladagi oilalar bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Voyaga yetmaganlar qonunga nisbatan hurmat hissini uyg'otib tarbiyalash muhim omil sanaladi. Buning uchun esa ota-ona huquqiy madaniyatdan, qolaversa ma'naviyatdan voqif bo'lishi lozim. Ushbu kerakli "ozuqa"lar ta'sirida voyaga yetgan farzand qonun ustuvorligini anglab yetishi, oilasi, avlod-ajdodlari tarixini ulug'lashi, o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g'ururlanishi, uni avaylab-asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya uzluksiz ekanligini inobatga olish lozimdir. U yoshlikdan boshlab qo'llanib borilishi maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmaganlar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida esa bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi huquqiy maqom kasb etishi zarur. Voyaga yetmaganlarga huquqiy tarbiya berishdan ko'zlangan maqsadlardan biri - har bir yosh inson huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda voyaga yetmaganlar va yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va ushbu faoliyatni takomillashtirish borasida bir qatorida mulog'azalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda qonunchilik sohasida bir qancha meyoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosi yuzasidan bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda voyaga yetmaganlar va yoshlarning bo'sh vaqtini samrali o'tkazish bo'yicha bir qancha chora- tadbirlar belgilanishi, bugungi kunda yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda keng samara bermoqda.

Hozirgi paytda profilaktika inspektorlari va voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash komissiyalari hamda, jamoat tarbiyachilari va boshqa mas'ul bo'lgan idoralar umuman olganda rasman faoliyat yuritmoqda. Bu o'rinda esa, ularning faoliyatini nazorat qilib hamkorlikni jadallashtirish lozim. Bunday holatda esa, samarali profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun e'tiborni bir qancha vazifalarga qaratish lozim, ya'ni:

- voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umumsoniy qadriyatlarini hurmat qilish ruxida tarbiyalash,
- diniy eksteremizm, zo'rovonlik va shavqatsizlik qoidalaridan himoya qilish maqsadida bo'sh vaqtlarni samarali o'tkazish uchun dasturlar ishlab chiqish,
- maktab o'quvchilarning ta'lim muassasalarida davomat tadbirlarni o'tkazish, hamda darsdan bo'sh vaqtlarida o'tkaziladigan to'garaklarni ham nazort qilib borishi kerak
- ijtimoiy havfli holatda bo'lgan va ta'lim muassalariga qatnashmaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan profilaktik ishlarni olib borish kabi vazifalarni bajarish darkor.

Bu masalada Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari, nafaqat mahalliy hokimliklar, IIO sohaviy xizmatlari, prokrortura, sud, mahalladgi idoralarning ham aybi bor albatta .

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etganlardan har bir, hech qayerda o'qimaydigan va ishlamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlardan iborat ekanligi, o'qishdan, ishgdan, jamiyatdan, borinki, hayotdan ko'ngli sovub, xalqimiz iborasi bilan aytganda, qo'lini yuvib qo'ltig'iga uradiganlardir.

Bu haqida gapirganda, nafaqat joylarda, baliki harakatnin markaziy idoralarida ham mehnat va hayot tarjibasiga ega bo'lgan malakali kadrlarning yetishmasligi jiddiy muammo bo'lib turganligini ta'kidlash lozim.

Bu esa voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlashda profilaktika inspektoriga bir qancha qiyinchiliklar to'g'dirmoqda.

Aytib o'tilganlarning barchasi boshqa omillar bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar va yoshlar sodir etgan huquqbuzarliklar profilaktikasi borasida faoliyatni takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda voyaga yetmaganlar va yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish bir qancha bosqichlarda vujudga kelmoqda. Profilaktika inspektori o'z xududida voyaa yetmaganlar va yoshlar bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullaniyotganini nazorat qilishi, mashg'ulotlarning ko'paytirish bo'yicha maxalla maktab ma'muriyati va hokimliklar bilan hamkorlikda ish olib borish, ishsiz yoshlarni aniqlash va ishga joylashtirishga ko'maklashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad, profilaktika inspektorining ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ishlash faoliyatini yanada takomillashtirish va ushbu nazariy yondashuvlarni amaliyotga keng tadbiiq etishni o'z ichiga qamrab oladi.